

KUSHON DAVLATI TARIXIGA DOIR BA'ZI MASALALAR

Yakobjanov J.J

Phd, dots.

Usmonqulova Maftuna Sharofiddin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti kechki bo'lim 401-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Kushonlar davlati qachon tashkil etilgani, nima sababdan markaziy Osiyoga kirib kelganligi hamda kushon hukumdorlarining madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotida olib brogan islohatlariga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *yuechji, Chjan Szyan, Xan, Daxya, Guyshuy, Xi-xeu, Gibin, Guyshuan, Xyumi, Shuanmi, Xise, Dumi, Kudzula, Vima Kadfiz, Kanishka, Afrosiyob, Dalvarzintepa, xi-xou, Tyanchju.*

SOME ISSUES ABOUT THE HISTORY OF THE KUSHANA STATE

Abstract: *This article provides information on the establishment of the Kushan Empire, the reasons for its entry into Central Asia, and the reforms implemented by Kushan rulers in cultural, political, and economic life.*

Keywords: *Yuezhi, Zhang Qian, Han, Daxia, Guishui, Xi-hou, Jibin, Guishuang, Xiumi, Shuangmi, Xise, Dumi, Kujula Kadphises, Vima Kadphises, Kanishka, Afrasiyab, Dalverzintepa, xi-hou, Tianzhu.*

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ, КАСАЮЩИЕСЯ ИСТОРИИ ГОСУДАРСТВА КУШАНА

Аннотация: *В данной статье приведены сведения о времени основания Кушанского государства, причинах его проникновения в Центральную Азию, а также о реформах, проведенных кушанскими правителями в культурной, политической и экономической сферах жизни.*

Ключевые слова: *юэчжи, Чжан Цянь, Хань, Дася, Гюйшуй, сихоу (ябгу), Гябинь, Гуйшуан, Хюми, Шуаньми, Сисэ, Думи, Куджула Кадфиз, Вима Кадфиз, Канишка, Афрасиаб, Дальверзинтепа, си-хоу, Тяньчжу.*

Strabon ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriyani assiylar, passianlar, toхарlar va saklar bosib oladilar. Pompey Trog xabar berishicha, "Baqtriya va Sug'diyonaning skif qabilalari saraukalar va assianlar bosib oladilar". Tadqiqotchilarning fikricha, har ikkala tarixchi bitta qabila haqida ma'lumot bergan.

Qadimgi Xitoy manbalari Baqtriyani yuechji qabilalari bosib olganligi haqida ma'lumot beradi. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani

mil.avv. 172-161 yillar oralig'ida deb belgilaydilar) yuechjilar xunlardan mag'lubiyatga uchraganidan so'ng O'rta Osiyoning shimoliy hududlarida ko'chib yuradilar.

Xitoy manbalarida "Da-yuechji" – "Buyuk" yoki "Katta yuechji" deb eslatiladi. Chjan Szyan ma'lumotlariga ko'ra, yuechjilar xun qabilalaridan mag'lubiyatga uchragach O'rta Osiyoning janubiga tomon harakat qilib, Daxya(Baqtriya)ni bosib oladilar va Guyshuy(Amudaryo)ning shimoliy tomoniga joylashadilar.

Katta Xan uyi tarixida ham yuechjilar Guyshuy daryosining shimoliy tomonidan o'z poytaxtlariga asos solganliklari ta'kidlanadi³⁸. Yana bir manbada esa quyidagicha ma'lumotlar uchraydi: Spitamen qo'zg'oloni mag'lubiyatidan so'ng, miloddan avvalgi IV asr oxirlarida xitoy manbalarida yuechjilar deb atalgan massaget qabilalari Sharqiy Turkistondan to Mug'uliston chegaralarigacha bo'lgan hududlarga ko'chib ketganlar. Xitoyning shimolda esa xun qabilalari yashardi.

Ular Sharqiy Turkistonda joylashib olib, xunlarni o'z ta'sirlariga olish niyatida bo'lganlar. Ularning bu niyati ayniqsa miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmida to'la namoyon bo'la boshlaydi. Sababi, xuddi shu davrda Markaziy Osiyoning janubi-sharqiy viloyatlarida Yunon-Baqtriya davlati tarkib topib, yuechjilarni bezovta qilmoqda edi.

Yunon-Baqtriyaga qarshi Markaziy Osiyo qabilalarining birlashgan mustaqil qo'shinining zaruriyati kelib chiqqan edi. Yunon-Baqtriya podshosi Yevtidem massaget qabilalarini bu harakatlarini barbod etish maqsadida xunlardan mohirona foydalanadi.

Yevtidem miloddan avvalgi 206 yilda salavkiylar hukmdori Antiox III bilan shimol ko'chmanchilariga qarshi harbiy ittifoq tuzadi. Bundan habardor bo'lgan xun shahzodasi Mode yuechjilar qo'lidan qaramlikdan qochadi, o'z otasini hokimiyatdan ag'darib tashlab, yuechjilar ustiga lashkar tortib boradi. Miloddan avvalgi 176 yilda xunlar yuechjilar ustiga ikkinchi marta hujum uyushtiradilar. Oqibatda xunlar 165 yilda yuechjilarni g'arbga uloqtirib tashlaydilar. Yuechji qabilalari qadimgi Farg'ona yerlariga chekinadilar va o'sha yerda istiqomat qila boshlaydilar.

Manbalarda yozilishicha, qadimgi Farg'onani shimoliy tumanlarida yuechjilar qishloq va shaharlar barpo etadilar.

Bu davrda yagona bir podsho bo'lmagan, balki urug' va urug' yabg'ulari qabila oksoqollari qo'l ostida birlashganlar. Jumladan, hozirgi Namangan viloyatining Yangiko'rg'on tumani hududida Kushon qishlog'i va Kosonsoyda Koson shahrini yuechjilar barpo qilgan edilar. Kushonlar to'g'risida eng kerakli ma'lumotlarni "Kichik Xan tarixi" asari(Xitoy sulolasi)dan, shuningdek, Kushon hukmdorlarining tangalaridan va ular qurib qoldirgan yodgorliklardan olish mumkin³⁹. Bevosita ikkala manbada ham kushonlarni O'rta Osiyoga xun qabilalaridan mag'lubiyatga uchrab kelganini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, yuechjilar mil.avv. 140-130 yillar oralig'ida Baqtriyaga bostirib kirganlar. Kichik Xan uyi tarixi ma'lumotlariga ko'ra, Katta yuechji

³⁸ Эшов Б. Узбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Т.: 2012. –Б. 104.

³⁹ Saidov Sh.J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. –Т.: 2010. В. 76.

hukmdorlari qo'l ostida beshta hokimlik (Xi-xeu) bor bo'lib ular Xyumi, Shuanmi, Guyshuan, Xise va Duminlardan iborat edi. Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko'pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuechji davrni uch bosqichga bo'ladilar:

1. Mil.avv. 139-125 yillar – Katta yuechji Daxya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimol tomonda edi.

2. Mil.avv. 25 yilga qadar – Katta yuechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan shimol tomonda bo'lib, janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki Qandaxor) edi. Yuechjilar bo'ysindirgan hududlar Xise, Shuanmi, Guyshuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo'lib ular xi-xou (yabg'u) tomonidan birlashtirilgan.

3. Mil.avv. 25 yildan keyin Katta yuechji davlati inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo'lishi. Kushon(Guyshuan) yabg'usi Kiotszyukyu(Kujula Kadfiz) qolgan to'rtta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soldi⁴⁰. Guyshuan oilasining yabg'usi qolgan 4 oila yabg'ularini 100 yil mobaynida o'ziga tobe etib, Guyshuan podsholigini tashkil qiladi va poytaxti taxminan Baqtra bo'lgan deyiladi. Uning yabg'usi Kiotszyukyu (ayrim manbalarda Geray) Parfiya bilan urush olib borib, hozirgi Afg'oniston hududlari va Qobulni egallab olgan.

Keyinchalik uning o'g'li Hindistonni bosib oladi va uni boshqarishni o'z lashkarboshilaridan biriga topshiradi. Bir vaqtning o'zida Kushon hukmdorlarining hukm surgan yillari to'g'risida ham Hindiston, ham Xitoyda yozilgan qaydnomalar mavjud. Lekin ularda berilgan sanalar keskin farqlanadi. Buning sababi nimada? Bunga sabab Xitoyda oy va quyosh kalendarlariga amal qilingan.

Hindistonda esa Xitoydan farqli ravishda Budda, Vikram va Saka kalendarlari amalda bo'lgan. Ular mingliklar va yuzliklar (1000,100) ni ifodalashmagan. Ularda faqat birliklar va o'nliklar (1-10) mavjud bo'lganligi uchun olimlar hanuzgacha solishtirish yo'li bilan Kushonlar hukmronligining aniq xronologiyasini aytib bera olmaydilar ⁴¹.

Umuman, Kushonlar saltanatining paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida baxslarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga ko'plab aniqliklar kiritish imkonini bergan tadqiqotlar olib borildi.

Ayniqsa, 1961-yil Londonda o'tkazilgan xalqaro simpoziyumi, 1968-yil Dushanbeda YUNESKOning konfrensiyasi, 1970-yil Qobuldagi xalqaro anjuman Kushon davlati masalalariga bag'ishlangan bo'lib, undan keyin ham bu masala bo'yicha ko'plab xalqaro anjumanlar bo'lib o'tdi⁴². Kushon davlatining xalqaro elchilik va savdo aloqalari keng rivoj topgan edi. Kushonlar 4 yo'nalish orqali tashqi savdo olib borganlar: 1 - Xitoygacha; 2 -Hindistongacha; 3 -Parfiyagacha; 4 -Kama daryosi bo'ylarigacha⁴³. Kushon imperiyasi o'zining eng gullagan davrida (milodning I – II asrida) hozirgi

⁴⁰ Эшов Б. Узбекистонда давлат ва махаллий бошқарув тарихи. –Т.: 2012. –Б. 105.

⁴¹ Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. –Т.: 2010. В. 77.

⁴² Эшов Б. Узбекистонда давлат ва махаллий бошқарув тарихи. –Т.: 2012. –Б. 105.

⁴³Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. –Т.: 2010. В. 79.

Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston, ehtimol Uyg'uristonni ham o'z ichiga olgan. Kushon podsholigi davrida buddizm Hindistonda Markaziy Osiyoga, undan esa Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Uzoq Sharqda tarqalgan. Buddizm turli milliy va diniy an'analar bilan kelishuvchanligi sababli ko'p millatlar tomonidan keng qabul qilindi. Buddizm hayotning barcha sohalari: diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy qatlamlariga kirib bordi. Kushonlar davri buddizmning madaniy hayotidagi o'ziga xos tomonlardan yana biri bu ko'hna Hind madaniyatining o'lkamizga yanada jonliroq kirib kelishi va o'z o'rnida mintaqamizga xos ko'rinishlarning Hindiston zaminida o'rnashib borishi bilan belgilanadi⁴⁴. Ularning e'tiqodlari xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mintaqaning aksar qismida zardushtiylik o'z mavqeini, asosan, saqlab qolgan. Ammo kushonlarning Hindistonning kattagina qismini bo'ysundirishi va, ayniqsa, Kanishka hukmronligi yillari saltanat markazining So'g'diyonadan Peshovarga ko'chirilishi bilan buddaparastlik dini o'lkamiz ahli orasida ham tarqala boshladi. Bundan ma'lum ma'noda kushon hukmdorlari ham manfaatdor edilar. Chunki butun saltanatda yagona din va e'tiqodning ustuvor bo'lishi siyosiy jihatdan ham yaxlitlikni ta'minlashda qo'l kelishi muqarrar edi⁴⁵.

Shunday qilib, Kushon podsholigi o'z tarkibiga ko'pina hududlar va ko'plab xalqlar, elatlarni birlashtirgan bo'lsa-da, uning tarixi o'zbek xalqi davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixida Kushon davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ayniqsa, madaniy hayot va tashqi aloqalar sohasida ulkan yutuqlarga erishilgan davr bo'lib kirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Эшов Б. Узбекистонда давлат ва махаллий бошқарув тарихи. –Т.: 2012. –Б. 558
- 2.Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. –Т.: 2010. В. 142
- 3.Abduxoliqov J. Yo'ldosheva S. Dinshunoslik. –Т.: 2004. 39-b
- 4.Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi. –Т.: 2000. 71-b.
5. Bozorova S. Kushon podsholigi davrida diniy bag'rikenglik. <https://cyberleninka.ru/article/n/kushon-podsholigi-davrida-diniy-bag-rikenglik>

⁴⁴ Bozorova S. Kushon podsholigi davrida diniy bag'rikenglik.

⁴⁵ Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi. –Т.: 2000. 71-b.